

**Maktabgacha yoshdagi bolalarga va boshlang'ich sinf  
o'quvchilariga xorijiy tilni interfaol usullar orqali o'rgatish metodikasi**

*Yangiboyeva Marjona Ravshan qizi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarga chet tilini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanishning roli haqida so'z yuritiladi. Ularning so'zlarni oson yodlashi va tezda tushunib olishi uchun turli o'yinlardan foydalanishning samarali usullari ochib berilgan. Va interfaol usullarga va metodikalarga ba'zi misollar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili, metodika, plakatlari, ko'rgazmali qurollar, texnologiyalar, interfaol usullar.*

Hozirgi zamonaviy dunyoda chet tilini o'rganishga talab oshib bormoqda. Shuningdek, ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan chet tillaridan biri va xalqaro tildir. Bundan kelib chiqadiki, rivojlanayotgan davlatlarda bu til muhim o'rin tutadi. Butun dunyodagi fabrika va korxonalar ham kuchli muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsalar, ingliz tilini o'rganish zarurligini tushunadilar. Shu sababli ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, Osiyo davlatlarida ingliz tilida so'zlashuvchilarga talab ko'paymoqda.

Ingliz tilini o'rganish nafaqat sanoat, tijorat sohalarida, bundan tashqari ta'lim sohasida ham yetakchi masalalardan biridir. O'zbekistonda yoshlarimizga ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan chora tadbirlar ko'paymoqda va buni prezidentimizning o'zi nazorat qilmoqdalar.

Mirziyoyev o'tgan yilning may oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligini tuzgan bo'lib, bu idora zimmasiga

ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish uslublarini tatbiq etish, samarali dastur va darsliklar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Ushbu sa'y-harakatlar doirasida hukumat O'zbekiston fuqarolari va umuman mamlakat raqobatbardoshligini oshirishi kutilayotgan 10 ta tilni tanlab olgan.

Ro'yxatning boshida ingliz tili, undan keyin rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab va fors tillari joylashgan. [1]

Asosan, ingliz tilini bog'cha va maktab o'quvchilariga o'rgatishning ham maqsad va vazifalari bor. Bu yoshda bolalar o'z ona tili bilan birgalikda boshqa chet tilini o'rganishga va uning asosiy mazmunini bilishga qiynalishmaydi. Sababi bolalarda eslab qolish va yod olish qobiliyati katta odamlardagiga qaraganda ancha kuchli rivojlangan. Bu davrda bolalarda so'zlashuv ko'nikmalari yaxshi shakllanishni boshlaydi. Bundan tashqari ular faqatgina o'z ona yurtlarining hayotiga emas, dunyo xalqlarining madaniyatlariga ham qiziqishni boshlashadi va atrofdagi voqealarga beparvolikdan saqlanishadi.

Bunday kichik yoshdagi bolalarni chet tiliga qiziqtirish, albatta, ma'lum metodikalarni talab etadi.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — vo-qelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.[2]

Bular ko'zgzamali qurollar, plakatlar va interfaol usullar bo'lishi mumkin.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. [3]

Bolalarda yangi fanni o'zlashtirish murakkab jarayondir. O'zga tilni o'z tilidek o'zlashtirish esa pedagogning tajribasi va mahoratiga bog'liq. Bu paytda yangi pedagogik metodlardan foydalanish ham ahamiyatlidir. An'anaviy darsdan ko'ra yangi texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda bolalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqoriroq bo'ladi. Quyida shunday metodlar va interfaol usullarning ba'zilar haqida misollar keltiriladi.

"Muammoli vaziyat yechimi" ( Creative Problem Solving) bu usulda o'quvchilar bir necha guruhlarga ajratiladi. O'quvchilarga bir hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi va yakunlovchi qismini fikrlash va xulolasalash esa o'quvchilar hukmiga qoldiriladi. Bu o'yin o'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanishiga va har xil vaziyatlardan turlicha yo'llar bilan chiqib ketishiga ko'maklashadi.

"Pantomima" ( Pantomime) bu o'yin orqali bolalar darsdan charchagan vaqtlari zerikmaslik va mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun qo'llanadigan o'yinlardan biridir. Bunda bolalar yangi yodlagan so'zlarini harakatlar yordamida ko'rsatishlari kerak va qolgan bolalar bu so'zni topishlari kerak. Bu judayam foydali usul bo'lib, ham bola harakatlanadi , hamda yangi lug'atlarni eslab qolishini osonlashtiradi. Bu o'yindan yangi so'zlarni yodlagandan keyin mustahkamlash uchun ko'p foydalaniladi.

"Rasmlar so'zlaganda" ( When Pictures speak) nomli o'yin ham mavjud bo'lib, talabalarga ingliz tilini o'rgatishda va chet tilida so'zlashuv ko'nikmalarini yani og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi. Bu o'yinda mavzuga doir rasmlardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida turli metodlardan va interfaol usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarda fikrlash darajasining kengayishi rivojlanadi, nuqt ravonlashadi, savollarga aniq va tez javob berish shakllanadi. Hamda bolalarda turli o'yinlar natijasida chet tilini o'rganishga ishtiyoq kuchayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://central.asia-news.com/uz-Latn/articles/cnmi\\_ca/features/2022/01/06/feature-02](https://central.asia-news.com/uz-Latn/articles/cnmi_ca/features/2022/01/06/feature-02)
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Metod>
3. <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>
4. Sanayeva.G.M. Ingliz tili fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi//. "Scientific Journal Impact Factor",2021 , oktabr.

5. Zubaydova. N.N. Vocabulary task//. “Kasbiy fanlar metodikasi”,2016.
6. Zubaydova. N.N. The teaching of English for specific purposes//. “Scientific researchers for development future International conference Proceedings”,2019.